



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 4 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 8, НОМЕР 4

LOOK TO THE PAST
VOLUME 8, ISSUE 4



ТОШКЕНТ-2025

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шоқир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуридиневич
тарих фанлари доктори, профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Boxodirov Ixtiyor TURKISTON HARBIY OKRUGINING ILI O‘LKASIDA ROSSIYA IMPERIYASI HUKMRONLIGINI O‘RNATISHGA QARATILGAN FAOLIYATI.....	5
2. Bo‘tayev Jonibek XX ASR BOSHLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA TIBBIY XIZMAT HOLATI.....	10
3. Djumamurotov G‘ulom XVIII ASRNING IKKINCHI YARMI VA XIX ASR BOSHLARIDA QORAQALPOQLARNING OROL BO‘YIGA KO‘CHIB JOYLASHISHI.....	16
4. Ergasheva Xusnida NEFT SANOATINING MODDIY-TEXNIK BAZASI VA INFRASTRUKTURASINI RIVOJLANTIRISH.....	27
5. Кобзева О.П. СКАНДИНАВСКИЕ ИССЛЕДОВАТЕЛИ ШЕЛКОВОГО ПУТИ.....	34
6. Rahmatov Muhridin TATAR ZIYOLILARINING TURKISTON TA‘LIM TIZIMINI YO‘LGA QO‘YILISHIDAGI ISHTIROKI VA UNING NATIJALARI.....	40
7. Ruzikulova Maftunaxon MARKAZIY FARG‘ONA SUV XO‘JALIGINING MOLIYAVIY TA‘MINOTI VA UNDAGI MUAMMOLAR (1950-1991-yillar).....	46
8. Саттаров Акрам XIX АСР ЎРТАЛАРИДА ТУРКИСТОНДАГИ ДЕМОГРАФИК ВАЗИЯТ.....	52
9. Tishabayev Alisher O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MALAKALI SPORTCHI MUTAXASSIS KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIDAGI O‘ZGARISHLAR (1991-2019-yillar).....	58
10. Toliboyeva N.O. O‘ZBEKISTONDA MADANIY-MA‘RIFIY SOHANING YUKSALISHI.....	66
11. Хайдаров Муродилла ФРЕДЕРИК СТАРР. МАРКАЗИЙ ОСИЁНИ ҚАЙТА КАШФ ЭТИБ.....	71
12. Baxtiyor Yuldashev, Xusnida Ergasheva SOVET DAVLATI HUKMRONLIGI YILLARIDA O‘LKADA NEFT SANOATINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR CHORA-TADBIRLAR.....	81



Maftunaxon Yuldashevna Ruzikulova,
Fargʻona davlat universiteti doktoranti,
tarix fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)

**MARKAZIY FARGʻONA SUV XOʻJALIGINING MOLIYAVIY TAʼMINOTI VA
UNDAGI MUAMMOLAR (1950-1991-yillar)**

For citation: Maftunaxon Y. Ruzikulova. FINANCIAL SUPPORT OF WATER MANAGEMENT IN CENTRAL FERGHANA AND ITS PROBLEMS (1950-1991). Look to the past. 2025, vol. 8, issue 4, pp.46-51

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15380668>

ANNOTATSIYA

Maqolada Markaziy Fargʻona suv xoʻjaligi qurilishiga kapital mablagʻlar sarflanishining ortib borishi, gidrotexnik inshootlar barpo etilishi va ulardan sugʻorish tizimida foydalanilishi masalalari birlamchi manbalar va ilmiy adabiyotlar yordamida tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: Markaziy Fargʻona, suv xoʻjaligi, irrigasiya, meliorasiya, moliyaviy taʼminot, gidroinshoot, paxta.

Мафтунахан Юлдашевна Рузикалова,
Докторант Ферганского государственного университета,
доктор философии по истории (PhD)

**ФИНАНСОВОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ ВОДХОЗЯЙСТВА ЦЕНТРАЛЬНОЙ
ФЕРГАНЫ И ЕЕ ПРОБЛЕМЫ (1950-1991 гг.)**

АННОТАЦИЯ

В статье с помощью первоисточников и научной литературы анализируются вопросы увеличения затрат капитала на строительство Центрального Ферганского водопровода, строительство гидротехнических сооружений и их использование в ирригационной системе.

Ключевые слова: Центральная Фергана, водное хозяйство, орошение, мелиорация, финансовая поддержка, водная инфраструктура, хлопок.

Maftunakhon Y. Ruzikulova,
Doctorate of Ferghana State University,
Doctor of Philosophy in History (PhD)

**FINANCIAL SUPPORT OF WATER MANAGEMENT IN CENTRAL FERGHANA
AND ITS PROBLEMS (1950-1991)**

ABSTRACT

The article analyzes the issues of increasing capital costs for the construction of the Central Ferghana water pipeline, the construction of hydraulic structures and their use in the irrigation system using primary sources and scientific literature.

Index Terms: Central Ferghana, water management, irrigation, melioration, financial support, water infrastructure, cotton.

1. Dolzarbligi:

Sovet davlatining irrigatsiya va melioratsiya qurilish ishlarini taraqqiy ettirishdan koʻzlangan asosiy maqsadi paxta xomashyosi yetishtirishni koʻpaytirishga qaratilgandi. Markaziy hukumatning mazkur sohalarni rivojlantirish yoʻlidagi tadbirlari 1950 – 1991-yillarda respublika, qolaversa, Markaziy Fargʻona qishloq xoʻjaligida paxtachilikning ustuvor soha sifatida toʻla hukmronlik qilishiga olib keldi. Taʼkidlash joizki, sugʻorish tarmogʻining rivojlantirilishi ham xuddi shu siyosat doirasida boʻlib, koʻproq paxta ekish hamda undan koʻp hosil olish orqali markaz va boshqa sotsialistik mamlakatlarni paxta xomashyosi bilan taʼminlash maqsadiga yoʻnaltirildi. Sovet organlari irrigatsiya-melioratsiya yuksaltirilsagina oʻzlarining koʻzlangan strategik rejalariga erishishini yaxshi anglaganligi bois suv xoʻjaligi tarmogʻini taraqqiy ettirishga va uni moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishga jiddiy ahamiyat berdi. Hukumat suv inshootlari barpo etish hamda choʻl hududlarini oʻzlashtirish tadbirlari uchun haddan ziyod kapital mablagʻlar sarf qildi. Mazkur ishlar uchun mablagʻ sarflash hajmi yildan-yilga tobora ortib bordi. Masalan, Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarning oʻzidagina Oʻzbekiston SSRda sugʻorish ishlariga 1 200 mln. rubl mablagʻ sarflandi [1]. Bu jarayon keyingi yillarda yanada kengroq tus oldi. 1950-yildan boshlab to 1970-yilgacha boʻlgan davr oraligʻida respublikadagi irrigatsiya qurilishi tadbirlariga qariyb 2 mlrd. rublga teng boʻlgan kapital mablagʻlarning yoʻnaltirilishi bilan bu yerda qator yirik sugʻorish inshootlari barpo etildi [2]. Berilgan faktlardan maʼlum boʻlishicha, tarmoqqa kapital mablagʻlar sarflanishi deyarli qirq yil mobaynida sezilarli darajada oʻsdi va natijada yangi irrigatsiya-melioratsiya obyektlari qurilib hamda ular doimiy foydalanishga topshirildi.

2. Metodlar va oʻrganilganlik darajasi:

Tadqiqot oldiga qoʻyilgan vazifalarni hal etishda va ularga yechim topishda, eng avvalo, tarixiylik va xronologik metodlar asos qilib olindi. Ishda xolislik tamoyili atroflicha qoʻllanildiki, u sovet tuzumi davrida kechgan voqea-hodisalarga va jarayonlarga haqqoniy baho berishga yaqindan koʻmaklashdi. Negaki, sovet hukmronligi yillari davrida Markaziy Fargʻona hududlarida amalga oshirilgan qoʻriq yerlarni oʻzlashtirish va bu yerda sugʻorish tizimini rivojlantirishga doir mustamlakachilik siyosati bilan bogʻliq hujjat va materiallardagi dalillar hamda maʼlumotlar hamma vaqt ham bir-biriga toʻgʻri kelavermaydi. Ayrim holatlarda ularda bir-birini inkor etish holatlari ham kuzatiladiki, tarixiy haqiqatni aynan haqqoniylik bilangina aniqlash mumkin boʻladi. Butun respublikada boʻlgani kabi Markaziy Fargʻonada irrigatsiya-melioratsiya ishlari 1950 – 1991-yillar mobaynida yanada kengaytirildi. Sovet agrar siyosatining ustuvorligi tufayli adir va tepaliklarda barpo etilgan yirik paxta maydonlarini sugʻorishda nasos, mashinalardan foydalanish anʼanaga aylandi. Yirik paxta ekin maydonlarini muntazam sugʻorish maqsadida vodiya bir qancha yirik irrigatsiya kanallari hamda adir zonalaridagi maydonlarni sugʻorish uchun nasos stansiyalari qurildi. Mavjud kanallarning texnik jihatlariga ayrimcha eʼtibor qaratilib, ularni tozalash ishlariga ham jiddiy ahamiyat berildi.

3. Tadqiqot natijalari:

1952-yil 12-iyulda SSSR Paxtachilik ministrligining “Stalin nomli Katta Fargʻona kanalini texnik jihatdan yaxshilash chora-tadbirlari haqida”gi buyrugʻida [3] KFKning birinchi navbatda texnik sozligini yaxshilash va uni kapital mablagʻ bilan taʼminlash hamda hududda paxtachilikni rivojlantirish maqsadida asosiy eʼtibor obyektning suv manbalaridan keng foydalanishga qaratilgan edi. Bu hujjatda Respublika Suv xoʻjaligi ministri hamda KFK ekspluatatsiya boshqarmasi boshligʻiga uch oy muddat ichida tegishli mahalliy tashkilotlar bilan birgalikda mazkur boshqarmaning shtatlarini optimallashtirish, boshqarma va gidrotexnik uchastkalarni yuqori malakali ishchilar bilan taʼminlash, 1953-yili KFK uchastkasi Kuyganyor toʻgʻonidan Asaka

dyukerigacha hamda Janubiy Farg'ona kanalini to'la tozalash vazifasi yuklatildi [4]. Markazning ushbu topshirig'i to'liq holatda ijro etildi, kanal suv bilan to'la ta'minlandi va paxta maydonlari kengaydi.

Xuddi ana shu yo'sindagi tadbirlarning mantiqiy davomi KPSS MQning 1953-yildagi sentabr Plenumida Markaziy Farg'onadagi suv xo'jaligi ishlarining olib borilishi ta'kidlangandi. Unga ko'ra, 1950-yillarda Farg'ona vodiysida yirik irrigatsiya inshootlari barpo etishga, mavjudlarining suv o'tkazish quvvatini orttirishga jiddiy ahamiyat qaratildi. Masalan, ayni shu davr mobaynida KFKning suv o'tkazish imkoniyati 200 m³/s ga yetkazildi. Bundan tashqari, Farg'ona vodiysidagi mavjud 10 ming ga yerni doimiy tarzda sug'orish uchun 9 ta nasos stansiyasi bunyod etildi. "Farhod" sovxoziga qarashli bo'lgan 12 ming ga maydonni mashina yordami bilan sug'orish va yerga ishlov berish ishlari o'tkazildi. Boyovut massividagi 40 ming ga ni sug'orish maqsadida 15 ta nasos qurilmalari barpo etildi. Mazkur bunyodkorlik ishlari negizida, shubhasiz, sovetlarning paxtachilikni rivojlantirishga yo'naltirilgan sa'y-harakatlarining asosi yotar edi. Shu mazmunda markaz rahbarlari hatto suv chiqmaydigan, sug'orish o'ta mushkul qo'riq va adir yerlarga ham paxta ekish, ularni nasoslar va mashinalar yordamida sug'orishga jiddiy e'tibor qaratdi. Bu nafaqat respublikada, balki Farg'ona vodiysida mazkur amaliyotning yildan-yil kuchayishiga olib keldi.

Sovet davlati Markaziy Farg'ona cho'llarini o'zlashtirib, ularni qishloq xo'jaligi iste'moliga kiritishga muhim e'tibor qaratgani bois hududda irrigatsiyani taraqqiy ettirish uchun kapital mablag'lar ajratish yil sayin ortib bordi. Chunki, hudud markazga paxta xomashyosi yetishtirib beruvchi bazaga aylantirilgandi. Kolxozlararo sovetlar tashkil qilingan davrdanoq ularda asosan 2 ta bo'lim, yangi yerlarni sug'orish va o'zlashtirish bo'limlari mavjud edi [5]. Yangi yerlarni o'zlashtirish tadbirlari kolxozlarning bo'linmas fondlari mablag'lari hisobidan olib borildi. Bu tadbirlarga, asosan, yangi yerlarda madaniy-maishiy xizmat ko'rsatuvchi obyektlar, maktablar, kasalxonalar, bolalar bog'chalari, magazinlar, kolxozchilar uchun turar-joylar barpo etish ishlari kirdi.

1953-yilning 1-oktabriga ko'ra, Markaziy Farg'onani o'zlashtirish maqsadida tashkil qilingan "Ferganavodstroy" tresti tomonidan hudud bo'yicha kapital mablag'larni o'zlashtirish rejası 73 000 rubl bo'lib, u 21 161 rubl (28,9 %) hajmida bajarildi [6]. Xususan, hududdagi belgilangan suv xo'jaligi qurilishi rejası 41000 rubl bo'lib, ya'ni u 7 091 (17,3 %) rubl, yo'l qurilishi rejası 14000 ming rublni tashkil etib, u 1 500 (10,7%) rubl, fuqarolik qurilishi rejası 27 00 rubl bo'lib, 1 270 (47,0%) rubl hajmida uddalandi [7]. Farg'ona vodiysidagi cho'l yerlarni o'zlashtirish ishlari 1953-yildan yanada kengroq avj oldirildi. Ana shu maqsadni to'la ma'noda bajarish barobarida suv xo'jaligining moddiy hamda moliyaviy tomonlarini mustahkamlash tadbirlari bajarildi.

O'n yil davomida hududdagi sug'orish va o'zlashtirish ishlariga, ya'ni 1953 – 1963-yillar uchun rejaga ko'ra 50 753,3 ming rubl ajratildi, amalda 40 425,8 ming rubl mablag' sarflandi [8]. Shundan bu yerdagi kolxozlarning bo'linmas fondidan rejada 35 309,9 ming rubl, amalda 20 170,9 ming rubl; davlat budjetidan rejada 15 444,4 ming rubl, amalda esa 20 254,9 ming rubl xarajatlandi. 1953 – 1960-yillarda Andijon oblast kolxozlarining reja bo'yicha to'lov (vznos) mablag'lari 38,8 mln. rubl bo'lib, Markaziy Farg'ona qo'riq hududlarini sug'orish va o'zlashtirishga amalda 26,8 mln. rubl kiritildi yoki u 69,2 %ni tashkil qildi. 1961-yilda reja bo'yicha to'lovlar 4 346 ming rubl bo'lib, shu yilning 11 noyabriga kolxozlar 1 825 ming rubl kiritdilar yoki u 42 % ga teng bo'ldi [9]. Bundan tashqari, 1953 – 1973-yillarda Farg'ona vodiysida qo'riq o'zlashtirish hamda ularni sug'orishga sarflangan kapital mablag'lar evaziga paxta ekin maydonlari 9,2 %ga o'sgan holda, bu ko'rsatkich hosildorlikda 24,9 %, yalpi hosilda 42,8 %ni tashkil qildi [10]. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, o'tkazilgan barcha tadbirlar va sa'y-harakatlar hududda aynan paxtachilikni rivojlantirish va hosildorlikni orttirib borish maqsadlarida amalga oshirildi.

1955-yilga mo'ljallangan xalq xo'jaligi rejasining loyihasida mamlakatda suv xo'jaligi qurilishiga ajratiladigan mablag'ning 650 mln. ga ko'paytirilishi ko'zda tutildi. Suv xo'jaligi ministrligining hisobot ma'lumotlari balansi bo'yicha shu yilning 1-yanvaridagi holatga ko'ra, tugallanmagan tarzdagi ishlab chiqarish hajmi respublikada 409,6 mln. rublni tashkil qilib, birinchi yarim yillikda 40,9 mln. rubl hajmidagi obyektlar foydalanishga berildi. Aynan shu yilda

yakunlanmagan umumiy qurilishning qoldig'i 368,7 mln. rubldan iborat bo'ldi [11]. Mazkur kapital mablag'larni ko'p miqdorda o'zlashtirmagan tashkilotlar sirasiga quyidagilar kirdi: Namangan oblast sug'orish tizimi boshqarmasi – 73,4 mln. rubl, Mirzacho'l qurilish direksiyasi – 64,8 mln. rubl, Quyimozor qurilish direksiyasi – 37,4 mln. rubl va Farg'ona oblast sug'orish tizimi boshqarmasi – 31,1 mln. rubldan iborat bo'ldi. 1958-yili O'zSSR Suv xo'jaligi kollegiyasi tomonidan mazkur ministrlarning kapital qurilish boshqarmasi boshlig'i, "Uzbekgidrostroy" tresti boshqaruvchisi, Markaziy Farg'onaning Farg'ona hamda Namangan oblastlari sug'orish tizimi boshqarma boshliqlariga suv yo'qotishni qisqartirish bo'yicha sug'orish tadbirlari uchun quyidagicha hajmda mablag' sarflandi [12].

1959-yil 23-yanvarda O'zKP MQ hamda O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti tomonidan "1959-yilda Markaziy Farg'ona yerlarini sug'orish va o'zlashtirish bo'yicha qurilish ishi dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qabul qilingan qarorga asosan matnida aynan 1959-yilda hududdagi qo'riq maydonlarni o'zlashtirish bo'yicha 18 6685 ming rubl hajmidagi qurilish ishi dasturi, shu jumladan, Andijon, Namangan hamda Farg'ona oblastlaridagi kolxozlar bo'linmas fondi hisobidan 10 5750 ming rubl, davlat budjeti hisobidan 55 385 ming rubl, "Selxozkredit" hisobidan 23 400 ming rubl, "O'zbekbirlashuv" hisobidan 2150 ming rubl hajmida tasdiqlandi [13].

O'zSSR Suv xo'jaligi ministrligining 1959-yil 13-noyabrdagi "1959-yil suv xo'jaligi qurilishi rejasini tugatish to'g'risida"[14] gi buyrug'ida O'zbekiston KP MQ byurosi tomonidan 1960-yildagi ekish tadbirlari uchun suv xo'jaligi qurilishini moliyaviy jihatdan ta'minlash, material fondlarni foydalanishga kiritish, turar-joy maydonlari va yerlarni irrigatsiya-melioratsiya jihatidan tayyorlash holati qoniqarli ekani e'tirof etilgani qayd etildi. Mazkur hujjat matnida 1960-yilning bahoriga sug'oriladigan yerlarni irrigatsiya-melioratsiya holatida tayyorlash bo'yicha o'tkazilgan tadbirlar ham aks ettirildi. Masalan, "Markaziy Farg'ona yerlarini sug'orish" yillik rejasini 1959-yilning 1-noyabridagi holatiga 69,8 %, Toshkent kanali rekonstruksiyasi va sug'orishni rivojlantirish rejasini – 53,7 %, Surxondaryo oblasti kolxozlararo soveti obyektlari rejasini – 78,6 % ga uddalandi. Oblast sug'orish tizimi boshqarmalari tomonidan quyi limit kapital mablag'lari rejasini quyidagicha hajmda o'zlashtirildi: Farg'ona oblast STB – 65 %, Surxondaryo oblast STB – 56,5 %, Buxoro oblast STB – 73,5 %, Qashqadaryo oblast STB – 66,8 % ga uddalandi [15].

Ta'kidlash o'rinliki, Farg'ona vodiysi, qolaversa, Markaziy Farg'ona hududlarida sanoat bazasini barpo qilish bilan bir vaqtda muhandislik kommunikatsiyalari, yo'llar, elektr uzatkichlar, aloqaning katta tarmoqlarini qurish ishlari asta-sekin bajarib kelindi. 1953-yildan 1972-yilgacha bo'lgan davr mobaynida Markaziy Farg'onada 780 km. masofaga teng avtomobil yo'llari, chuqurligi 450 m. keladigan 910 ta artezian quduqli 592 km. ga teng bo'lgan vodoprovod quvuri yotqizildi, 750 km. elektr liniyasi o'tkazildi, 112 ming kvadrat m. ga teng 1858 ta uylar va 256 ta madaniy-maishiy hamda ishlab chiqarish binolari, shu jumladan, 97 ta bolalar bog'chalari va yashilari hamda 66 ta maktab qurilib, doimiy foydalanishga topshirildi [16].

O'n birinchi besh yillikda (1981 – 1985-yillar) melioratsiya va suv xo'jaligi ishlariga 6,4 mlrd. rubl mablag' sarflandi, hamma oblastlar qatori, Andijon, Namangan va Farg'ona oblastlari hududlaridagi hamda Qoraqalpoq ASSRdagi 500 000 ga ga yaqin yangi yerlarni o'zlashtirish tadbirlarini amalga oshirish mo'ljallandi [17]. Markaziy Farg'onadagi suv xo'jaligi qurilishi ishlariga mablag' ajratish 1985 – 1990-yillarda ham orttirib borildi. Chunki, bu yerdagi suv xo'jaligi qurilishi va yerlarga ishlov berish tadbirlariga mablag' ajratish, eng avvalo, paxta yakkahokimligi siyosatining ta'sirida asta-sekin o'sib bordi. Chunki bu amaliyot asosida ko'plab paxta ekin maydonlari barpo etildi va ularni doimiy manbalar bilan ta'minlash uchun esa ulkan suv obyektlari qurildi hamda foydalanishga topshirildi. Bir so'z bilan aytganda, suv xo'jaligi tarmog'iga qarashli barcha gidroinshootlar markazning xomashyo bilan bog'liq bo'lgan manfaatlarini muntazam ta'minlashga xizmat qildi.

Xulosa:

Xullas, 1950 – 1991-yillar mobaynida Markaziy Farg'ona suv xo'jaligi qurilishiga davlat budjeti va kolxozlarning bo'linmas fondidan kapital mablag'lar sarflab borish yil-sayin orttirib borildi. Hududdagi qurilish ishlarini amalga oshirishda "Ferganavodstroy", "Andijanvodstroy" va "Namanganvodstroy" trestlarining o'rni ahamiyatli bo'ldi. Bu yerdagi qo'riq, bo'z yerlarni

o'zlashtirish va sug'orish ishlarini kolxozlar tomonidan moliyalashtirilishi natijasida qurilish ishlari hajmi avvalgi davrga nisbatan ancha yaxshilanib bordi. Markaziy Farg'ona hududlariga bo'yicha ajratilgan kapital mablag'lar asosan suv xo'jaligi qurilishi, yangi o'zlashtirilgan maydonlarda paxtachilik sovxozlari tashkil qilish, qurilish materiallari va qurilish sanoatini rivojlantirish, uy-joy, kommunal va madaniy-maishiy binolar qurishga yo'naltirildi. Biroq, hududdagi suv xo'jaligi qurilishi va o'zlashtirish uchun ajratilgan kapital mablag'lar ba'zi hududlarda asossiz ravishda o'zlashtirilmasdan ham kolib ketdi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

- [1] Совет иттифоки коммунистик партиясининг XX съезди. 1956 йил 14-25 февраль: Стенографик хисобот I. – Тошкент: Ўздавнашр, 1957. – Б.206 (20th Congress of the Communist Party of the Soviet Union. February 14-25, 1956: Stenographic Report I. – Tashkent: Uzdavnashr, 1957. – P.206).
- [2] Минводхоз УзССР в девятой пятилетке. – Ташкент, 1976. – С.3 (Ministry of Water Resources of the Uzbek SSR in the Ninth Five-Year Plan. – Tashkent, 1976. – P.3).
- [3] Andijon viloyat davlat arxivi, 602-fond, 1-ro'yxat, 56-yig'majild, 39-varaq (Andizhan Regional State Archive, Fund 602, List 1, Volume 56, Sheet 39).
- [4] Комилов О.К. Ўзбекистонда ирригация тизими ривожланиши ва унинг оқибатлари (1951-1990 йй.): Тарих фан. докт (DSc). ... дисс. автореферати. – Тошкент, 2017.– Б.25. (Komilov O.K. The development of the irrigation system in Uzbekistan and its consequences (1951-1990): Doctor of History (DSc). ... dissertation abstract. – Tashkent, 2017.– P.25.)
- [5] O'zbekiston Milliy arxivi, R.2597-fond, 1-ro'yxat, 14-yig'majild, 25-varaq. (National Archive of Uzbekistan, Fund R.2597, List 1, Volume 14, Sheet 25.).
- [6] Комилов О.К.Ўзбекистонда суғориш тизими ривожланиши: ютуқ, муаммо ва оқибатлар. Монография. – Тошкент: Akademnashr, 2016. – Б.101 (Komilov O.K. Development of the irrigation system in Uzbekistan: achievements, problems and consequences. Monograph. – Tashkent: Akademnashr, 2016. – P.101.).
- [7] Farg'ona viloyat davlat arxivi, 1151-fond, 1-ro'yxat, 5-yig'majild, 8-varaq (Ferghana Regional State Archive, Fund 1151, List 1, Volume 5, Sheet 8).
- [8] Farg'ona viloyat davlat arxivi, 1151-fond, 1-ro'yxat, 80-yig'majild, 5-varaq (Ferghana Regional State Archive, Fund 1151, List 1, Volume 80, Sheet 5).
- [9] Andijon viloyat davlat arxivi, 608-fond, 1-ro'yxat, 1451-yig'majild, 22-varaq (Andizhan Regional State Archive, Fund 608, List 1, Volume 1451, Sheet 22).
- [10] Досов Б.Г. Ирригация ва мелиорацияга йўналтирилган капитал маблағлар самарадорлигининг эконометрик тадқиқоти: Иқтисод фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2001. – Б.53 (Dosov B.G. Econometric study of the efficiency of capital investments directed to irrigation and land reclamation: Candidate of dissertation. – Tashkent, 2001. – P.53).
- [11] Farg'ona viloyat davlat arxivi, 1022-fond, 2-ro'yxat, 184-yig'majild, 242-varaq (Ferghana Regional State Archive, Fund 1022, List 2, Volume 184, Sheet 242)
- [12] O'zbekiston Milliy arxivi, R.2483-fond, 1-ro'yxat, 1277-yig'majild, 1-varaq (National Archives of Uzbekistan, Fund R.2483, List 1, Volume 1277, Sheet 1).
- [13] O'zbekiston Milliy arxivi, R.2483-fond, 1-ro'yxat, 1382-yig'majild, 285-varaq orqasi (National Archive of Uzbekistan, Fund R.2483, List 1, Volume 1382, Back of Sheet 285).
- [14] O'zbekiston Milliy arxivi, R.2483-fond, 1-ro'yxat, 1383-yig'majild, 265-varaq (National Archive of Uzbekistan, Fund R.2483, List 1, Volume 1383, Sheet 265).
- [15] O'zbekiston Milliy arxivi, R.2483-fond, 1-ro'yxat, 1383-yig'majild, 266-varaq (National Archive of Uzbekistan, Fund R.2483, List 1, Volume 1383, Sheet 266).
- [16] Farg'ona viloyat davlat arxivi, 1151-fond, 1-ro'yxat, 87-yig'majild, 67-varaq (Ferghana Regional State Archive, Fund 1151, List 1, Volume 87, Sheet 67).

[17] Совет Ўзбекистони. 1984 йил 4 февраль (О‘zbekiston КП МКning О‘zbekiston КП XX syezdiga hisoboti). (Soviet Uzbekistan. February 4, 1984 (Report of the Central Committee of the Communist Party of Uzbekistan to the 20th Congress of the Communist Party of Uzbekistan)).

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 4 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 4

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 4

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000